

Azim Suyun



Azim Suyun – O'zbekiston xalq shoiri, o'zbek zamonaviyadagi adabiyoti rivojiga hissa qo'shgan atoqli namoyanda. Uning "Men sizni sevaman", "Yetti kitob" nomli kitoblari, "Sarbadorlar" tragediyasi, "O'zbekiston", "Zamin taqdiri", "Bir tomchi suv dengizga aylangan kecha va yoki imorat" kabi dostonlari kitobxonalar orasida mashhur bo'lgan.



Hikmatli so'zni o'qing va ma'nosini izohlang.

Aql ulug'likka etadi payvand
Aqlsizning doim oyogida band.

Abdulqosim Firdavsiy





Vatan yoshlari

Azim Suyun

Biz o'zbek yoshlari, Vatan yoshlari,
Vatan taqdiriga taqdirdosh nasl.
Millatning bir jon-u bir tan yoshlari,
Buyuk kelajakka daxldor, mas'ul!
Mardona-mardona tashlaylik qadam,
Ozod yurt, obod yurt bo'lsin mukarram!

Ota-bobolardan jasorat meros,
Barhayot shonlari, ular kimniki?
Nomusi, vijdoni, e'tiqod-ixlos,
Barchasi bizniki, barchamizniki!
Mardona-mardona tashlaylik qadam,
Ozod yurt, obod yurt bo'lsin mukarram!

Ona O'zbekiston yo'li porloq, oq,
O, uning ertasi o'zimizdadir.
Abadiy porlasin muqaddas bayroq,
El-yurtga qo'llimiz ko'ksimizdadir!
Mardona-mardona tashlaylik qadam,
Ozod yurt, obod yurt bo'lsin mukarram!



nasl – avlod

daxldor – egalik qilmoq, tegishli

mas'ul – javobgar

abadiy – umrbod



1. She'rni o'qiganda ko'z oldingizda nimalar namoyon bo'ldi?
2. She'rdagi asosiy mazmunni qisqa matn orqali izohlab bering.
3. She'rdan sizga mazmuni tushunarsiz bo'lgan so'zlarni ajrating va izohli lug'at yordamida ma'nosini bilib oling.
4. "Uning ertasi o'zimizdadir" misrasini qayta o'qing va vatanning ertasiga qanday hissa qo'sha olishingiz haqida fikrlang.
5. Vatan ravnaqi uchun nimalar qilgan bo'lardingiz?



Maqollarni yod oling va ma'nosini izohlang.

1. Vatanga falokat – o'zingga halokat.
2. Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas.
3. Vatansiz inson – kuysiz bulbul.



She'rni yod oling.

Shartli belgilari:



Og'zaki
topshiriq



Guruh bo'lib
ishlang



Diqqat bilan
o'qing



Bu – qiziq!



Eslab
qoling!



Izohli
lug'at



Mantiqiy
topshiriq



Topshiriqni
bajaring



Savollarga
javob bering



Uy vazifasi